

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT
VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI
“SHARQ MUSIQASI FAKULTETI”
“XALQ CHOLG'ULARIDA IJROCHILIK” KAFEDRASI**

QILICHEVA HAYOTXON INOYATOVNA

“DUTOR CHOLG'USIDA O'QITISH USLIBIYOTI”

**“5150700 – Cholg'u ijrochligi (xalq cholg'ulari)” ta'lim
yo'nalishi**

Bakalavir darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

Dotsent, R. Xojiyeva

TOSHKENT - 2017

MUNDARIJA

	KIRISH	3
I BOB	Dutor ijrochiligiga hissa qo'shgan mashhur ijrochilar. Ro'zibiy Xojiyeva ijro maktabi.	7
1.1	Dutor cholg'usining kelib chiqish tarixi.	15
1.2	Hozirgi kunda dutor cholg'usining o'quv jarayonidagi o'rni	18
II BOB	Dutor cholg'usi haqida umumiy ma'lumot.	24
2.1	Cholg'uda ijro etishning asosiy uslubi va vazifalari (pastanovka, shtrixlar, barmoqlarning dastada joylashuvi).	36
2.2	An'anaviy dutor ijrochilik uslublari.	43
	XULOSA	53
	ILOVALAR.	54
	ADABIYOTLAR.	58

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Musiqa bu - insonlar hayotining ohanglardagi xis – tuyg'ulari deb ta'riflashadi. Demak, olamni tasavvur etishda in'ikos etuvchi vositalar ham beozor shaklu-shamoyil, go'zal fazilat, beg'ubor un taratishga qodir bo'lishi shart. Aks holda butun mavjudotlar ichida eng oliy hilqat bo'lgan insonda sabt etish yoki o'xshatish xislatining bo'lmasligi muqarrar. Shu bois ham faqat insongina qo'li gul, tafakkur egasi, ma'naviyatga ega, ijod degan ne'matdan bahramand etib yaratilgan. Ijod esa musiqa olamini mo'jizakor vositalar bo'lmish sehrli cholg'ular yaratib, benazir ohanglar taratuvchi sozlar bilan to'ldirdi. Natijada, bugungi kunda inson hayotini musiqiy cholg'ularsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Cholg'ular insoniyat ma'naviyatining bir bo'lagiga aylandi. Har bir xalq o'z hayoti, ma'naviyati va an'anasi asosida o'z milliy qadriyatlariga mos musiqiy cholg'ular yaratgan.

Sharqning musiqiy cholg'u sozlari – eng qadimiy, o'ziga xos va jonli san'atdir. Bizgacha yetib kelgan qadimiy tasvirlar, arxeologik topilmalar va o'rta asrlardagi cholg'u sozlarining tasvirlari ularning qadim-qadimlardan buyon mavjud ekanligini tasavvur qilish imkonini beribgina qolmay, shu bilan birga u yoki bu musiqiy sozlarning o'zbek xalqi ajdodlari orasida azaldan taomilda bo'lganligi xususida ham ma'lumotlar beradi. Ana shunday cholg'u sozlardan biri, O'zbek xalqining barcha udum va qadriyatlari, milliy an'analarini aks ettiruvchi dutor cholg'usidir. Dutor xususidagi dastlabki ma'lumotlarni Mavlono Zaynulobidin al-Xusayniyning Alisher Navoiyga bag'ishlangan "musiqiy ilm va amaliyot qonuni" risolasida uchratamiz. 15 asrning ikkinchi yarmida bitilgan bu risolada o'sha zamonda kvarta entervali oralig'ida sozlanuvchi, o'n bir pardaga ega bo'lgan dutor tavsiflanadi.

Dutor va dutor cholg'ulari to'g'risida ma'lumotlar beruvchi yana bir manba Al-Husayniy risolasidan ikki yuz yil keyin yozilgan "risolai musiqiy" asari bo'lib, uning muallifi mashhur xofiz, bastakor va changchi sozanda Darvish Ali bin Mirzo Ali bin Xo'ja-Maxmud Munavvardir. Darvish Alining asari ikki bo'limdan, ya'ni nazariy va tarixiy qismlardan iborat.

O'tgan asrda dutor san'atiga nisbatan ko'proq e'tibor bergan, unda ijro etilgan qo'shiqlar va kuylarni yozib olgan dastlabkinovrupolik musiqashunos, xarbiy orkestr dirijori Avgust Eyxgorn bo'ldi.

O'zbeklar va O'rta Osiyodagi boshqa xalqlarning musiqiy madaniyati tarixi, cholg'ularning o'ziga xos akustik, musiqiy-texnik jihatlari, sozlanishi hamda tovush qatorlari va applikaturasi Eyxgorn e'tiborini o'ziga jalb etadi.

20 asr birinchi choragida o'zbek musiqa san'atining ilmiy-uslubiy va milliy tomonlarini birinchilardan bo'lib tadqiq qilgan olim Abdurauf Fitrat edi. Xususan, "SHashmaqomning shubachalarini, ufarlarini hamda butun el kuylarini dutor bilan chalish mumkindir", -deb yozadi A. Fitrat. --- "Dutorning haraki juda past bo'lgani uchun ko'p dutorchilarimiz chalgan vaqtda qo'llarini taxtaga tekkizib dutorning mazasini qochiradi.

1919-yilda tashkil etilgan halq konservatoriyasi qoshida alohida ijodiy jamoa tuzildi. B. A. Uspenskiy boshchiligidagi Turkmanistonga uyishtirilgan ekspeditsiya chog'ida 350 ga yaqin xalq musiqiy asarlari turli ijrochilardan yozib olindi. Bu kuy va qo'shiqlarning aksaryati turkman dutorida cholg'u asari sifatida yoki dutor jo'rnavozligida ijro etilgan.

30-yillarning ikkinchi yarmidan to 50-yillarning o'rtalarigach an'anaviy xalq cholg'u asboblari, jumladan, dutorni ham cholg'u asbob sifatida tadqiq qilish ishlari sezilari darajada susayadi.

Ma'lumki, ijrochilik san'ati muayyan hududlarga xos uslublarning shakllanishi, xalqning turli etnik guruxlarga bo'linishi bilan bog'liqdir. Dutor -- o'zbek cholg'u sozlari ichida muhim o'ringa ega bo'lib, uning ijrochilik xususiyatlari janrlarning o'ziga xosligi, ohang va tovushlar tuzilishi tamoyilida, cholg'uni yasash san'ati qoidalarida asosan, Farg'ona- Toshkent, Buxora-Samarqand va Xorazm uslublarida namoyon bo'ladi.

Dutor chalish san'atida Farg'ona- Toshkent uslubining asrlar davomida mukammallikka erisha borganligini ko'ramiz.

Asrlar davomida dutorda ijro etilib kelinayotgan ohanglarning sayqallashuvi, ularning shaklan rang-barangligi, usul va uslublari doirasining kengligi ijroning o'ziga xos nafisligi va ta'sirchanligi an'anaviy ijrochilik maktablarining paydo bo'lishiga olib keldiki, bu omillarning barchasi o'zbek milliy madaniyatining muhim tarkibiy qismi bo'lmish dutor chalish san'atining ko'lamini yetarlicha tavsiflaydi. Ushu ma'lumotlar bilan yosh sosandalarni o'quv jaraonida tanishtirib boorish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bitiruv Malakaviy Ishining maqsad va vazifalari. Amaliyotda, dutorning behisob ijrochilik namunalari shakllangan har bir yoshdagilar, jamiyatning har bir tabaqasida o'ziga xos o'rin topgan, xalq orasida eng go'zal ijro namunalari yuzaga kelgan. Asosan har bir cholg'uda bo'lgani kabi, dutor cholg'usida ham o'ziga xos ijro uslublari mavjud. Mana shunday ijro uslubini tashkil etishda avvalo dutor haqida nazariy bilimlarga ega bo'lishimiz lozim. Ana undan keyin cho'lg'uda to'g'ri o'tirish ya'ni pastanofkani to'g'ri qo'ya bilishimiz, bu esa ijrochining o'zi ijro etayotgan asarini moxirlik bilan ijro etishini ta'minlaydi. Keyingi bosqichda esa pazitsiya va applikaturani qo'yish ham muhim omillardan biri hisoblanadi. Cholg'uda tovush chiqarish va zarblar haqida ma'lumot. Bularni puxta egallagandan so'ng albatta musiqiy asarlar bilan ishlashga o'tiladi. Mustaqil o'z ustida ishlash orqali o'quvchi maxoratini oshirib boradi. Bular haqida to'liqroq ma'lumotni mana shu yozilgan amaliy ishdan bilib olishingiz mumkin.


Mavsuning yangiligi. Respublikamizda xalq cholg'u ijrochiligini yanada yuqori pog'onalarga ko'tarishda o'rgatish uslubiyotining sifatli darajada bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim muassasalarining cholg'uda o'rgatish ishilariga uchta asosiy vazifani ko'zda tutadi: ta'lim berish, rivojlantirish va tarbiyalash. Ta'lim berish vazifasi asosiy va hal qiluvchi masalalardan biri bo'lib, o'quvchilar cholg'uda ijro etish uchun zarur bo'lgan bilimlarni egallaydilar va shu bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalarini hosil qiladilar. Rivojlantirishning asosiy maqsadi shundan iboratki, o'quvchilarning bilimni anglab yetish imkoniyatlarini rivojlantirib, turli ilmiy axborotlardan to'g'ri xulosa chiqarib olishga o'rgatishdir. Bu jarayonda o'quvchilarni asta-sekin ijodiy fikrlashga o'rgatish ishi ham amalga

oshirib boriladi. Tarbiyalash vazifasi (ta'lim berish va rivojlantirish bilan birgalikda) ta'lim umumiy jarayoniga kompleks yondashishning ajralmas qismidir. Tarbiyalashdan maqsad, dars mazmuni va uslublari orqali yosh avlodni o'z jamiyati mafkurasini to'g'ri idrok qilishga o'rgatishdir. O'quv tizimining barcha pog'onalarida xalq cholg'ularida ijro etishni o'rgatish uslubi'yoti o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, ma'naviy va madaniy ongini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Tadqiqot ob'ekti. Dutor ijrochiliqining dastlabki bosqichidan boshlab, uni rivojlantirish jarayonlari hususida fikr yuritiladi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Kirish, ikki bob, to'rt paragraf, xulosa, takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I – BOV. ДУТОР ИЖРОЧИЛИГИ РИВОЖИГА ҲИССА ҚЎШГАН
МАШҲУР ИЖРОЧИЛАР



F. Vasilenko, Orif Qosimov, Turg'un Alimatov, G'ulom Qo'chqorov, Usta Usmon Zufarov, Mirsodiq Ergashov va boshqa mashhur sozanda va ustozlar dutor cholg'usi rivojlanishi va takomillashishiga o'z hissalarini qo'shishgan.

HOZIRGI KUNDA DUTOR IJROCHILIGIGA HISSA QO'SHAYOTGAN

MASHXUR IJROCHILAR



Boqijon Raximov, Sulton Qosimov, Ro'za Xodjayeva, Ulug'bek Yunusov, Gulchexra Muxammedova va boshqalar dutor cholg'usining ommalashishida, takomillashishida ustozlarimizni an'analarini davom ettirgan holda o'z hissalarini qo'shib kelmoqda.

USTOZRO'ZIBIYOXOJIYEVAMAKTABI.

Ro'zibi Xodjaevaning ustozlik faoliyati.

1978 yil dekabr oyida O'zbekiston xalq artisti G'. Toshmatov rahbarligida “dutorchi qizlar” ansambli tashkil qilina boshlaydi.



1979 yili 16 yanvardan 12 ta qiz ish faoliyatini boshlaydi u qizlarni orasida Ro'zibi Xojiyeva ham bor edi. Shu bilan Ro'zibi o'qish bilan birgalikda 1983 yilgacha dutorchi qizlar ansamblida ishlab kela boshladi. Shu davr ichida ansambl xalq orasida o'z obro' etiboriga ega bo'ldi. Toshkent davlat Konservatoriyasida ustoz Feoktist Nikifirovich Vasil'ev sinfida dutordan o'qiy boshlaydi. Ustozlaridan Vasil'ev bir dunyo, G Toshmatov bir dunyo. Ular ikkalasi bir-biriga qarama-qarshi ustozlar edi. Lekin Vasil'ev O'zbek cholg'ularida ijro etolmasa xam ularning dars o'tish uslublari moxirona edi. Ikki ustoz ikki xil yo'nalishda o'rgatishsa ham asosiy ijro uslubiga bo'lgan g'oyalar bir xil edi. Ro'zibi imtixonlarida xar doim komissiya a'zolari tomonidan yaxshi olqishlar eshitardi. F Vasil'ev ham ota talabchan bo'lib, ijro sirlarini mukammal o'rgatish bilan birga “dutorchi qizlar” ansamblida

o'rgangan kuy qo'shiqlarini dutorga moslab notalashtirishni xam majburlar edi. Kuylarini R'ozibi ustoz G'. Toshmatovdan tekshirtirib olib asta notalashtirib borar edi. 1983 yili 5 kursni tugatish arafasida ishash uchun yo'llanmani "dutorchi qizlar" ansambliga oladi. Mutaxassislikdan imtixon topshirayotgan vaqtida, imtixon rayisi Ozarbayjonnan kelgan kompozitor Aliskerov komissiya azolaridan, Ro'zibini chalishini eshitib bu qizimizni Konservatoriyaga olib qolish kerak, shunday yaxshi iqtidorli kadrlar bizga kerak deb elon qilibdi. Shu bilan Ro'zibining taxdiri bir kunda hal bo'p ketadi. Endi Rozibi Konservatoriyada asosiy ishda qolib, assistentura- stajirovkaga sirtidan oqishga kirib va yana 3 yil oqishni davom ettiradi. Shu 3 yil oqish xam asosiy ishda oqituvchilik faoliyatini boshlagani uchun "Dutorchi qizlar" ansamblidan ketishga majbur bo'ladi. 1989-yili Ro'zibi "Yosh ijrochilar" konkursida qatnashib 1 chi o'rin sovrindori bo'ladi. Shu bilan birga ilmiy ishini xam davom ettiradi. Bu vaqt ichida nashrdan chiqqan 2 ta oquv qollanma qolyozmasini tayorlab bo'lgan edi. 1986 assistentura stajirovkani tugatib yana "Dutorchi qizlar" ansamblida orindosh sifatida ish faoliyatini 2002 yilgacha davom ettiradi. Bu orada 1992 yili turmishga chiqadi 1993-yili og'li Shaxriyor tug'iladi. Hayotining eng quvonishli kunlaridan biri farzandining dunyoga kelgan kuni edi. Ko'p qiyinchiliklarni, yetishmovchiliklarni bosib otadi. Onasi qattiq kasal bo'lib 2002 yili fevral oyida bandalikni bajo keltiradilar. Sabablarga ko'ra ansambl talablariga toliq javob berolmaslikda (prof ne godniy) deb yozib berib D. Zokirov nomidagi xalq cholg'ulari orkestriga o'tkazish taklifini bildirishti. Ro'zibi oylab otirmastan rozilik berib ketadi. Onasini marakasini o'tkazib Ro'zibi orkestrga kelsa, orkestor sozandalari va dirijor qarsak chalib kutib olishadilar. Shu tarixa orkestrda 2008 yilgacha ishlab keldilar. 2009 yili G, Toshmatov nomidagi "Dutorchi qizlar" ansamblini yoshartirish maxsada tarqatildi va talaba yoshlardan yangidan ansambl tashkil qilish vazifasi topshirildi va Ro'zibi Xodjaeva badiiy raxbar qilib tayinlandi. Yangi dasturni 3 oy ichida qaytadan tiklab televedeniya ekranlarida, davlat tadbirlaridagi va bir yarim soatlik jinli ijrodagi yaponiyalik san'atkor mexmonlar bilan xamkorlikdagi xamdstlik konserlarini muvofiqiyatli otkazdi. 2015 yil sababsiz ishlab turgan joyida

raxbariyat kelib yangi raxbar tayinlab ketdi. Va yana o'zi tashkil qilgan “ Dutorchi qizlar ” ansamblidan chetlandi. Lekin o'z vaqtida ustozlaridan ko'p o'rgangani bo'lsa kerak, O'zbekiston davlat jahon tillari univesiteti rektori Sh. Qayumov univesitet qoshida dutorchilar ansambli tuzish maqsadida ishga taklif qilindi. 14 yanvar qurolli kuchlarga bag'ishlangan tadbirlarda shaxrimizda kopgina xarbiy qismlarda univesitet tadbirlarida konsertlar otkazdi. Ijodiy faoliyatida eng esta qoladigan yillari, O'zbekiston Davlat Konservatoriyasidagi ish jarayonim deydi – Ro'zibi Xodjaeva.

1999 yilda birinchi kitobi nashrdan chiqib o'z egalarini topdi. 2007 yili ikkinchi “ Dutor navolari ” deb nomlangan o'quv qollanmasi nashrdan chiqti.



O'zbekiston Davlat Konservatoriyasiga 1978 yili o'qishga kirib 1983 yil o'qishni tugatib ish faoliyatini hozirgacha , dastlab o'qituvchi, song katta o'qituvchi, dotsent lavozimini bajaruvchi va 2007 yildan buyon “ Dotsent ” lavozimlarida davom ettirib kelgan.

Ijodiy faoliyatining eng mazmunli daqiqalaridan biri 2005 yildan to xozirga qadar O'zbekiston Yaponiya markazi qoshidagi Yapon Valantyorlari uchun ochilgan “ Dutor o'rganish ” kursiga raxbarlik qilib keldi. 2005 yil Janubi Inaba O'zbekiston – Yaponiya markazida, Yaponiya tomonidan direktori dutor kursi tashkil qilish maxsadida bizning “ Xalq cholg'ulari ” labaratoriyamiz direktori Ozoda Toshmatovaga murojat qilinganida, Rozibi shu kursni boshqarishini taklifini bildirdi va 2005 yildan dastlab sinov tariqasida 1 oy ish olib bordi keyin 15 kunlik otpuski berishadi, yana 15 kun ish olib borib yapon valantyorlarining bizning dutor sozimizga qiziqishlari juda baland bo'lgani uchun Rozibini dutor o'rgatishga yana davom ettirishini soraydi. Shu tarixa xozirga qadar Yapon valantyorlari bilan dutor organish kursi orqali O'zbekiston – Yaponiya ortasidagi diplomatik aloqalarining mustaxkamlashida oz bo'lsa ham o'z hissasini qoshadi.



Yaponiyaliklar bilan Rozibi qiziqarli konsertlar qoyib turardi.2010 yili oktyabr oyida konsert dasturi bilan Rozibi gastrol safariga boradi. Yaponiyaning “Maybashi ” degan shaxrida dombra ijrochiligining festivalida ishtirok etadilar. Estalik uchun Rozibi Tokio ovoz yozish studiyasida dutor kuylaridan tasmaga yozib ketadilar.

Xozirda yana Konservatoriyada o’zining sinfidagi dutorchi qizlari bilan yana yangi dasta tuzib ish olib boryapti.





“ Men hardaim aytaman, men baxtli ustozman, shogirdlarga juda boyman. Yaponiyada 200 dan ortiq shogirdlarim bor, O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasini meni qo‘limda bitirib ketgan talabalarim barchasi o‘z soxalarida O‘zbekistonimizning turli shaxarlarida ish faoliyatlarini davom ettirib, yosh dutorchilarni tarbiyalab kelishmoqda. Kelajakda farzandim ham o‘z kasbining fidoyisi, egasi boladi degan umiddaman. Shunda eng baxitli ona ham bo‘laman ” deydi -- Rozibi Xodjaeva.

1.1 Dutor cholg'usining kelib chiqish tarixidan.

Sharqning musiqiy cholg'u sozlari – eng qadimiy, o'ziga xos jonli san'atdir. Bizgacha yetib kelgan qadimiy tasvirlar, arxeologik topilmalar va o'rta asrlardagi cholg'u sozlarning tasvirlari ularning qadim –qadimlardan mavjud ekanligini tasavvur qilish imkonini beribgina qolmay, shu bilan birga u yoki bu musiqiy sozlarning o'zbek xalqi ajdodlari orasida azaldan taomilda bo'lganligi xususida ham ma'lumotlar beradi.

Ana shunday cholg'u sozlaridan biri – dator o'zbek xalqining musiqiy madaniyati bilan tarixan chambarchas bog'liq san'at ramzidir.

Dutor haqida birinchi marta Temuriylar davrining boshlarida bitilgan adabiy manbalarda so'z yuritilgan (14-15asr). Aniqrog'i, "bizning davrimizdagi O'rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan ikki torli dator haqidagi birinchi ma'lumotlar 15 asrga taalluqlidir. Dutor Al-Xusayniyning "Qonun" kitobida tilga olingan bo'lib, "n ikki maqom tizimini tushuntirishda asos sifatida foydalanilgan. Al-Xusayniyning tarixiy risolasiga suyanib, 15 asrdagi dator sozini har tomonlama tasavvur etish juda mushkul. Bunday muammoni o'rganish davomida professor I. Rajabov shunday xulosaga kelgan: "Hozirgi datorimizga qaraganda bo'g'izi kattaroq, kosasi ud kosasidan kichikroq, do'mbiranikidan esa kattaroq bo'lgan, torlari ipakdan yoki ichakdan qilingan. Pardalari esa yettita, eng asosiy belgisi, Al-Husayniyning ta'biricha, torlari ikkita bo'lgan. Dutor so'zining paydo bo'lishi shu ko'rinishdagi ko'p torli sozlardan ikki torli sozni farqlash uchun nomlangan bo'lsa ajab emas."

Dutor cholg'usining yaratilishi haqida rivoyatlar ham bor. I. Rajabov "maqomlar masalasiga doir" risolasida Fisag'ursning ilk cholg'ni yaratishga turtki bo'lgan rivoyatni keltirib o'tadi. Ulardan biri: Bir usta kechqurin su'rida dam olib otirganida, to'lin oyning shu'lasini su'ri yonidagi tut daraxtiga tushib, daraxtning soyasida yerga datorning hozirgi shakliga uxshash shakl tushib turganini ko'radi va shu shaklni chizib oladi, ertasi shu daraxtdan chizib olingan shaklni yasaydi. Tut daraxti ipaklaridan dator simini ulaydi va chalib ko'radi biroq dutordan sado

chiqmaydi, sababi dutorning kosasi to'liq bo'ladi. (Qadimda dutor, tanbur kosalari u'yma holatda bo'lgan.) So'ngra usta hayolga tolib darvoza oldida o'tirganida bir gala yigitlar qo'shiq aytib ko'chadan o'tib ketishadi, ovozlari jarangdor, baralla yoqimli eshtiladi. Ancha vaqtdan keyin shu yigitlar yana u'sha qo'shiqni aytib orqaga qaytishadi, endi ovozida boyagi jarang, yoqimli ohang yoq edi, aksincha ovozlari bog'iq eshtilar edi. Shunda usta yigitlarni barini to'xtatib qiziqib soraydi,-
“ Bolalarim boya otib ketayotganlaringda shunaqa ovozinglar jaranglab eshtilib turgan edi, endi qaytayotib, ovozlaringda bu jarang yoq bug'ilib eshtilib turbdni sababi nimada?” – deb so'raydi. Shunda: “ E otxon boya biz o'tib ketayotganimizda qornimiz och edi. Xozir biz mexmondorchilikdan qaytayabmiz, qornimiz to'q sababi shunda,” – Zukko usta darrov dutorni kosasini oyib qopqoq bilan yopadi ip tortib chalib ko'radi. Endi dutor usta kutganidek sado berib yoqimli ohang taratadi. Shu tariqa usta shogird yo'nalishida dutor ijrochiligi davom etib kelgan.

Xalq cholg'u sozlari jamiyatning turli vakillari orasida turlicha tarqalga edi. Cho'ponlar nayni xo'sh ko'rsalar, usta sozandalar qo'lida sato, tanbor, do'mbira xalq musiqachilari – baxshilarining hamrohi bo'lib, dutor esa uy sharoitida keng tarqalgan chulg'u hisoblangan. Dutor nozik, yumshoq, past tovushga ega bo'lgani uchun ayollar orasida mashhur bo'lgan.

O'zbekistonda dutorning bir necha turlari mavjud bo'lib, ular torlarning bir xilligi, umumiy ko'rinishi, pardalarining bog'lanishi jihatdan o'xshash bo'lsa, uzunligi, tovushqatori, diapazoni, tayyorlanish uslublari, yog'ochlarining turlariga ko'ra bir-biridan farq qilgan. Bu esa, albatta, soz tembrining bir-biridan farq qilishiga olib keladi.

Xorazmda va Turkmanistonning ba'zi viloyatlarida dutor kosasining o'yma turi ham uchraydi. Bu dutor “qazma” nomini olgan. Qovurg'li dutor esa – dilma nomi bilan ijrochilar o'rtasida keng tarqalgan. Respublikamizning qolgan viloyatlarida dutor kosasining yelimlangan turlari uchraydi. Buxoro va Qoraqalpoqistonda dutor kosasi ikki bo'lakdan iborat, Samarqandda to'rt, Toshkent va Farg'ona vodiysida o'n, o'n ikki qovurg'ali dutor kosalari uchraydi.

Cholg'ularning bunday takomili, o'yma kosali, pardasiz, ikki torli, chertib chalinadigan do'mbira cholg'usidan sekin-asta pardali, ikki torli dutor cholg'usi paydo bo'lganidan dalolat beradi. Dutorning texnik o'zgarishlaridan tashqari, uning tovushqatoridagi o'zgarishlarni ta'kidlab o'tish o'rinlidir. Dutor tovushqatori bizgacha to'liq bo'lmagan yarim qatorliklar (xramatik) ko'rinishdagi, ravon sur'atlarga bo'linmagan (temperatsiyasiz) holda yetib kelgan. Pastki oktavadan soz diapazoni, pardalarning qo'shilishi tufayli kengaya bordi. Yuqori oktavadagi yeti bosqichli diatonic gamma to'liq bo'lmagan xramatik tovushqatoriga o'ta boshladi. Bunday o'zgarishlar evolutsion xarakterga ega edi.

Milliy dutor katta nok shaklidagi kosaga ega. Kosa bilan dasta "bo'g'iz" orqali ulanadi. Sozning kosasi yupqa, tekis yog'och deka bilan qoplangan. Dekada kichik tovushxonalar (rezonatorlar) joylashgan.

30-yillarning ikkinchi yarmiga kelib, O'rta Osiyo xalqlari o'rtasidamusika madaniyati katta o'zgarishlarga yuz tutdi. Turkmaniston, Qirg'iziston, Qozoqiston, Tojikiston va O'zbekiston ko'povozli, milliy cholg'ular orkestri tashkil qilina boshladi. O'zbekistonda A. I. Petrosiyans bir guruh sozanda va cholg'u ustalari bilan birgalikda, rus cholg'ushunosi V.V. Andreyevning bu borada yaratgan ishlaridan andoza olib, o'zbek xalq cholg'ulari ustida tinimsiz ilmiy izlanishlar olib bordi.

20 asrgacha saqlanib, bizgacha yetib kelgan xalq cholg'u sozlari milliy musiqa asarlarimizni ijro etishga mo'ljallangan edi. Xalq sozandalari cholg'uchilik borasida o'zbek xalq cholg'u sozlarini takomillashtirishdek dolzarb vazifalarni tushunib yetdilar. Shundan kelib chiqqan holda, xalq cholg'ularini takomillashtirish bilan shug'ullanuvchi ustaxonalar ochilgan.

30-yillarning o'rtalariga borib, o'zbek xalq cholg'ularini qayta ishlash davom etadi.

Mashaqqatli mehnatlar natijasida musiqani o'qitish ommalashdi. Dutor – qayta ishlovga yuz tutgan birinchi xalq chog'usidir. Dutorning birinchi takomillashtirish ob'yekti qilib olinishi bu tasodifiy hol emas.

Birinchi: dutor xalq orasida eng keng tarqalgan cholg'u.

Ikkinchidan: dutorning tovushqatori boshqa soz tovushqatori bilan solishtirilganda, dutorning tovushqatori o'n ikki bosqichli tovushqatorga yaqin hisoblanadi.

Har bir xalq o'z hayoti, ma'naviyati va an'anasi asosida o'z milliy qadryatlariga mos musiqiy cholg'ular yaratgan. O'zbek xalqining barcha udum va qadryatlari, milliy an'analarini aks ettiruvchi cholg'usi dutor bo'lib, amaliyotda, dutorning behisob ijrochilik namunalari shakillangan, xalq orasida eng go'zal ijro namunalari yuzaga kelgan.



1.2.Hozirgi kundagi dutor cholg'usining o'quvjarayonidagi o'rni.

**Tut daraxtio'smaganda dutor bo'lmas edi,
usta bo'lmaganda undan ohangrabo musiqa
asbobiyasash mumkin bo'lmas edi, dutor
yasashoddiy kasb bo'lganida usta bo'lmas edi.**

Dutor – chertib chalinadigan qo'shtorli musiqiy asbob bo'lib, o'zbekistonda va qo'shni sharq mamlakatlarida yashayotgan o'zbek, tojik, uyg'ur, turkman, qoraqalpoq va boshqa xalqlar orasida keng tarqalganidir. Dutor atamasi forsha “du” – ikki va “tor” ma'nolarini bildiradi. Boshqa xalqlarda bo'lgani kabi, o'zbeklarda ham turli hududlarning mahalliy sheva guruhlarida dutorning tarkibiy qismini tashkil qiluvchi atamalar turlicha ifodalanadi. Uning ayrim qisimlarining nomlar maxsus tub ma'noga ega. Masalan, “quloq”, “xarrak”, “kosaxona” va boshqa atamalarda ana shunday ma'no mavjud.

Qadim zamonlardan buyon ustalar dutorni asosan tut daraxtidan yasaganlar. Bu to'g'rida Darvish Ali o'zining “ Risolai musiqa “ asarining dutor ta'rifiga bag'ishlangan qismida quyidagicha yozadi: “Dutorlarning ko'pchiligi tut yog'ochidan ishlanadi, torlari esa ipakdan eshiladi. Shuning uchun ham cholg'uning tovushi shirador va mayin, bu hol tut va ipakning bir-biriga ohangdoshligi, ko'rinmas rishtalar bilan bog'liqligi bir vujudning mahsullari ekanligining natijasidir.

Bizning davrimizda ham dutorlar asosan tut daraxtining turli navlaridan yasalib kelindi.

Dutor haqida hozirgi vaqtda maxsus pedagogik adabiyot deyarli yo'qligini nazarda tutib, xalq orasida dutor hamda boshqa xalqlardagi dutorga yaqin bo'lgan

asboblarni (rus balalaykasi, qozoq do'mbirasi, qirg'iz qobuzi, turkman va qoraqalpoq dutorlarini) chalishdagi pedagogik tajribani va ijro etish texnikasini kuzatish natijalarini ko'rishimiz mumkin.

Dutor chalishdagi asosiy usullarni bir sistemaga solish, ularni ma'lum darajada tariflab berish, dutorga o'xshash asboblarni chalish usullarini o'rganish asosida dutor chalish usullarini klasifikatsiya qilish va ulardan ba'zi birlarini dutor chalish proktikasiga ko'chirildi.

Maktab yoshidagi bolalarning o'zbek xalq cholg'u asboblarida o'qishga bo'lgan ehtiyojlarni nazarda tutib, respublika musiqa maktablarida turli cholg'u asboblari qatorida dutor sinfi ham tashkil qilingan. Shuni nazarda tutish kerakki, ommalashgan o'zbek xalq cholg'u asbobi – dutor tuzilish jihatdan katta (grifi uzun, lad (parda) lar oralig'i keng) bo'lib, bolalar bu cholg'u asbobini o'rganayotganda ancha qiynaladilar.

Oxirgi yillarda dutor klassida o'qitish tajribasi o'quv yurtlarida dutor-pirima va ommaviylashgan dutor-tenorni o'rganishda darsda bir-biri bilan uzviy bog'lab olib borishni taqazo qilmoqdadir. Dutor prima tuzilish va tovush chiqarish prinsipi jihatidan xalq orasida qadimdan ommaviylashgan dutor- tenorga aynan o'xshashdir.

Xalq orasida dutor “dilkash cholg'u” nomini olgan.Unda ijro etilgan har qanday kuy, oxang qalb torlarini tebratadi. Chunki bu nola qalb istagan oxangdir. Shuning uchun dutor ayollarimiz qo'lida hasrat quroli, dil izhorini namoyish etish uchun hamrox bo'lgan ko'ngil oshnosidir.

Dutorning bunday imkoniyatlari turli xalqlar musiqa merosini ijro etish uchun yertarli darajadadir.Dutor ijrochiligi amaliyotda kelayotgan turli ijrochilik yo'nalishlari ham uning amaldagi isbotidir. Dutor qaysi yo'nalishda bo'lmasin, ijrosida shu uslubga xos an'anasi va ularni ifodalovchi o'z jozibasi bor.

Dutor sozini professional ijrochilik amaliyotidagi o'rni ham beqiyosdir.Ushbu jarayon cholg'uning jahon musiqa naminalari ijrochiligi bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, sharq va yevropa kompazitorlarini asarlari dutor tarannumida yanada joziba va ma'no anglatishi haqiqatdir. Orif Qosimov, Doni Zokirov, G'ofir

Qodirov, Hamid Raximov, Mardon Nasimov, Mustafo Bafoyev, Qahramon Komilov, Alisher Rasulov kabi o'zbek bastakor va kompazitorlarning ba yo'nalishlarga asoslanib, dutor cholg'usi uchun zamonaviy uslubda yaratgan asarlari ijrochilik amaliyotida o'z o'rnini topgan.

Dutor yasagan ustalar dutorning mayin yumshoq ovozini yanada jozibali bo'lishi, tenglaovchilarga yoqishi, ijro jarayonida yengillik bo'lishi uchun dutor dastasida bog'langan, vaqt o'tishi bilan surilab, tovushning sofligiga salbiy ta'sir etadigan pardalarni, doimiy yopishtirilgan taxtachalar bilan ajratishdi, pardalarni dumaloq belgilar bilan belgilashdi.

Bu chizmada Petrosyans taqqoslagan milliy dutor va rus xalq cholg'usi balalayka ko'rsatilgan.

Cholg'ular nomi	Tortilgan sim uzunligi	Sim soni	Sim sifati	Asbob shakli	Tovush-qator	Matematik soz
o'zbek milliy dutori (takomillashmagan)	120 –135	2	Ipak	Tuximsimon	Diatonik	Temperatsiyasiz
Rus balalaykasi (takomillashmagan)	120 –135	2	Ipak	Tuximsimon uchburchak	Diatonic	Temperatsiyasiz
Rus balalaykasi (takomillashgan)	55 – 60	2	Ipak	Uchburchak	Xromatik	12 bosqichli ravon sur'atlarga bo'lingan tovush-qator

Bu chizma yordamida rus xalq balalaykasi, takomillashgan balalayka va milliy dutorimizni har tomonlama taqqoslab ko'rishimiz mumkin. O'zbek xalq cholg'u sozlarini takomillashtirish bo'yicha tajriba ustaxonasida o'z o'lchami (menzurasi) bilan milliy dutorimizdan farqlanadigan cholg'u yaratildi. Ushbu soz alt deb nom oldi. Alt dutor, milliy dutordan faqat o'lchami bilangina ajralib qolmay, balki

ochiq torlar sozlanishida, qo'sh dekalari, richakli quloqlari va tayyorlanadigan yog'och turlari bilan farq qiladi.

Har sohada bo'lgani kabi, yaratilgan yangilik musiqashunoslar, ijrochilar orasida ijobiy va salbiy fikrlarga sabab bo'ldi. Shuni unutmash kerakki, hayot doimiy harakatdan iborat. Bunday harakatning davomi dutorning past registrdagi (bas) turini yaratishga olib keldi. Ilmiy ishlar natijasi butun boshli dutor oilasining yaratilishiga sabab bo'ldi. Bu oilaga kiruvchi barcha cholg'ular (prima, sekunda, alt, tenor, bas, kontrabas) milliy takomillashtirilgan dutor asosida yaratildi.



Bu chizmada hozirgi kundagi dutorlar oilasining menzurallari keltirilgan

DUTOR PRIMA	460 mm. menzuraga ega.
DUTOR SEKUNDA	720 mm. menzuraga ega.
DUTOR ALT	800 mm. menzaraga ega.
DUTOR TENOR	900 mm. menzuraga ega.
DUTOR BAS	650 mm. menzuraga ega.


Ularni sinab ko'rish maqsadida Toshkent filarmoniyasi qoshida tashkil etilgan ko'ptovushlik o'zbek xalq cholg'ulari orkestri tarkibiga kiritildi.

Dutor oilasi orkestr tarkibida ishtirok etib, unga yuklatulgan vazifani o'z ijrosi orqali to'la – to'kis oqladi. Dutor oilasi faqat to'liq orkestr tarkibida ishtirok etib qolmay, mustaqil ravishda ko'povozli orkestr va ansambl tuzish imkoniyatini ham berdi. Dutor oilasi to'liq orkestr diapazonini egallagan. Hozirgi kunda dutorlar oilasi orkestrda ham ansamblda hamva albatta yakka xolda ham aloxida o'ringa ega cholg'u hisoblanadi.

Hozirgi kunda dutor oilasidagi cholg'ular uchun yangi repertuarlar, qo'llanmalar, darsliklar, kompazitorlar tomonidan yaratilmoda



Dutor haqida umumiy ma'lumot.



Dutorning tuzilish.

Dutor kosa, dasta va bosh qismlardan iborat.

Dutor kosasi o'n, o'n ikki "qovurg'ali" bo'lib, shakli nokka o'xshaydi. Kosaning og'zi unga yelimlab qo'yilgan qopqoq bilan yopilgan. Qopqoqning o'rtasida kichkina doira shaklida teshikcha bo'lib, u tovush xonasi deb ataladi.

Qopqoqning ustiga, dastaga yaqin joyga qalqon o'rnatilgan. Dutorni chalganda bu qalqon uning qopqog'ini tirnashdan saqlaydi. Kosaning pastki qismida dutor torlarini ushlab turuvchi torgir (tor ilgak) bor. Qopqoq ustiga torlar uchun ikki yeri xarrak o'rnatilgan. Xarrakni o'rnatganda uning o'rni xarak bilan o'n ikkichi parda oralig'idagi masofa o'n ikkinchi parda bilan yuqorigi xarrakcha bo'lgan masofaga teng bo'lishi kerak.

Dutor dastasi kosaning yuqori qismi bilan tutashgan. Dasta bilan uning bosh qismi bir butun yog'ochdan yasaladi. Dasta pardalarga bo'lingan. Pardalar hayvon shoxidan yoki bo'lmasa qattiq, maxkam yog'ochdan tayyorlanadi. Dastaning usti, uning yon tomonlari chap qo'lining erkin xarakat qilishiga xalaqit bermasligi uchun yaxshilab silliqanib, pardoatlanadi. Dastada 20 dan 24 gacha parda joylashadi.

Dutor dastasining yuqori qismi dutor quloqlarini o'rnatishga va torlarni sozlashga xizmat qiladi. Dutorning yuqori qismi bilan dastaning tutashgan yeriga torlarni o'rnatish uchun ikki yeridan o'yib qo'yilgan yuqorigi xarrakcha o'rnatilgan. Torlar quloqlarga o'ralib buriladi. Agar tor tarang qilib tortilsa, tovush balandlashadi va aksincha, tor bo'shashtirilsa, tovush pasayadi.

Dutorni saqlash:

Har bir musiqa asbobi ham parvarishini talab qiladi. Asbobni zax joyga qo'yish, ochiq deraza oldiga ilish yaramaydi, chunki nam havo ta'sirida dutor qismlarining

yetimi ko'chadi, nam tortib qolib, tovush jarangi yomonlashadi, torlari ham namlanib tez ishdan chiqadi.

Dutorni quyoshda yoki uzoq muddat quruq joyda ham asrab bo'lmaydi, chunki qurib, butunlay ishga yaramay qolishi mumkin.

Dutor chalishda sozanda kuylari quruq va toza bo'lishi lozim, aks xolda dastada, pardalar yonida, torlarda kir yig'ilib qoladi. Natijada torlar yaxshi soz bo'lmaydi va tovushni yo'qotadi. Dutorni chalib bo'lgach, albatta, toza quruq latta bilan artib qo'yish kerak.

Dutorni changdan va zaxdan asrash uchun uni pishiq gazmoldan yoki brezentdan tikilgan g'ilofda saqlash lozim.

Tovush uning yozilishi va xususiyatlari:

Musiqqa tovushlarini yozib olish uchun ishlatiladigan maxsus belgilar bor, ular notalar deb ataladi.


Notalarning o'z nomi bor, ular hammasi bo'lib yettita:

DO, RE, ME, FA, SOL, LYA, SI.


Muzikaviy tovushlar hamda musiqaviy bo'lmagan tovushlar bor. Musiqaviy tovushlar biror musiqqa asbobi yordami bilan hosil qilingan tovushlardir. Musiqaviy bo'lmagan tovushlar – har xil shovqin, taqir-tuqur va o'xshash tovushlardir.

Musiqaviy tovushlar bir-biridan past-balandligi, cho'zimi, kuchi va tembiri bilan farq qiladi. Tovushning balandligi torning tebranish kuchiga bog'liqdir. Dutor torini turli pardalarda bosib, uning tebranish kuchini qisqartirish yoki uzaytirish bilan turli balandlikka ega bo'lgan tovushlar xosil qilish mumkin.


Turli balandlikdagi tovushlarni bildiruvchi belgilar nota yo'lga yoziladi. Beshta gorizontal parallel chiziq nota chiziqlari yoki nota yo'li deb ataladi.




Nota yo'lidagi chiziqlar pastdan yuqoriga qarab sanaladi.



Notalar chiziqlar ustiga va chiziqlar ostiga joylashadi.



Nota yo'lidan ko'ra balandroq tovushlarni yozish kerak bo'lib qolganda yuqorigi qo'shimcha chiziqlar ishlatiladi:



Dutorning birinchi tori fortepiano, chang yoki boyaning lya tovushiga sozlanadi:

Ikkinchi tor kuyining qaysi sozda chalinishiga qarab sozlanadi: agar bosh pardada chalinishi lozim bo'lsa, u vaqtda ikkinchi tor kichik oktavadagi MI

tovushga moslab sozlanadi; agar o'rta pardada chalinadigan bo'lsa, kichik oktavaning RE tovushiga mos qilib sozlanadi.

Shunday qilib, agar siz bosh pardada chalmoqchi bo'lsangiz, ikkinchi tor birinchi torning beshinchi pardasini chap qo'lingiz barmog'I bilan bosganda chiqqan tovush bilan bir xilda bo'lishi kerak. Agar o'rta pardada chalmoqchi bo'lsangiz, ikkinchi tor birinchi torning yettinchi pardasini chap qo'l barmog'I bilan bosganda paydo bo'lgan tovush bilan bir xilda bo'lishi lozim.

Dutorga ipak tor, kapron yoki ichak tor taqish mumkin.


Dutor yozilganda bir oktava past jaranglaydi.

Dutorda tovushlarning joylashuvi.

Nota yo'liga yozilgan har bir notaga dutor dastasidagi ma'lum bir parda to'g'ri keladi.

Pastdagi raqamlar ikkinchi tor pardalaridagi tovushlarning joylashgan o'rnini ko'rsatadi. Yuqoriga raqamlar birinchi tor pardalaridagi tovushlarning joylashgan o'rnini ko'rsatadi. Birinchi misolda bosh pardada sozlangan dutor notalarining joylashuvi, ikkinchi misolda esa o'rta pardada sozlangan dutor notalarining joylashuvi ko'rsatilgan.

1-misol. Dutorda notalarning joylashuvi.



Yuqori tomonga qo'yilgan barmoqlar shu turishida RE notasini birinchi barmoq bilan birinchi LYA torining beshinchi pardasida olish, SI notasini uchinchi barmoq bilan MI torining yettinchi pardasida olish kerakligini ko'rsatadi:


O'rta pardada sozlashda yuqori tomonga qo'yilgan barmoqlar RE notasini birinchi barmoq bilan birinchi LYA torining beshinchi pardasida olish, SOL ni katta barmoq bilan ikkinchi RE torining beshinchi pardasida olish kerakligini ko'rsatadi.

Tovush cho'zimi.


Sanoqning sekin-tezligi ijro etilayotgan pyesaning xarakteriga bog'liq: ohangdor, ravon va osoyishta kuy sekin sanashni va aksincha, jadal ijro etilayotgan pyesa esa tez sanashni talab qiladi.

Chorak nota cho'zimini bir tekisda osoyishta qadam tashlash o'lchamiga tenglashtirish mumkin.

Nimchorak notalar chorak notalarga qaraganda ikki baravar tez ijro etiladi. Nimchorak notalar shtiliga dumcha qo'shilgan cho'ziqroq qora nuqta shaklida yoziladi:




Yonma-yon turgan bir necha nimchorak notalar, odatda, gorizontaal chiziq (bog'lovchi) bilan birlashtiriladi.



Pyesani bir tekisda chalish uchun yordamchi vosita sifatida ovoz chiqarib sanash qabul qilingan. Bunda “bir” deganda birinchi nimchorak, “ i “ deganda ikkinchi nimchorak olinadi.


Masalan:



bir i


Dutor bosh pardada va o’rta pardada sozlanganda notalarning qanday joylanishini yodlab olish zarur. Bundan keyin yuqorigi raqamlar pardalarni qaysi barmoqlar bilan bosish kerakligini ko’rsatadi.

Masalan: bosh pardada sozlanganda:




Ba’zida bir me’yorda sanoq oyoq kafti bilan ham olib boriladi, chunonchi “ bir “deganda oyoqning uchi pastga tushadi, “ i “ deganda yuqori ko’tariladi.


Yarim nota chorak notaga qaraganda ikki baravar uzoqroq ushlanadi. Yarim nota yoniga chiziq qo’shilgan cho’ziqroq doira shaklida yoziladi:



Yarim nota sanog’i ikki chorak yoki to’rt nimchorakli nota sanog’i bilan bir me’yorda olib borilishi kerak:



Butun nota sanog’i yarimtalik ikkita yarim nota sanog’iday olib boriladi:



Musiqada tovushlarning bundan ham tez almashinib turishi uchraydi. Bunday tovushlar o'n oltidan bir, o'ttiz ikkidan bir va shunga o'xshash notalar bilan yoziladi:




O'n oltidan bir notani sanashda " bir "deganda ham ikki notani, " i " deganda ham ikki

Notani olish kerak:




Bir i

Taktlar musiqa asarini o'lchovi bir xil bo'lgan qisqa cho'zimlarga bo'ladi. Og'zaki nutqda bo'lgani singari, musiqada ham, kuchli va kuchsiz hissalarining almashinib turishini uchratamiz. Kuchli urg'u taktning birinchi hissasiga, ya'ni takt chizig'idan keying birinchi tovushga tushadi:




Har bir musiqa asarining boshlanishida, kalitdan so'ng, taktning o'lchovi oddiy kasr bilan ko'rsatiladi. Kasrning sur'ati har bir taktdagi teng hissalar sonini,

maxraji esa sanoq uchun qabul qilingan cho'zim hissasini ko'rsatadi. Masalan, agar pyesani o'lchovi 2/4 bo'lsa, ushbu taktida ikki hissa borligini – birinchisi kuchli hissa, ikkinchisi kuchsiz hissa ekanligini, chorak esa sanash birligi ekanligini bildiradi. Bu yerda sanoq “ bir ” “ i ”, “ ikki ” “ i ” deb olinadi:



Agar pyesaning bosh qismida $\frac{3}{4}$ o'lchovi qo'yilgan bo'lsa, sanash mana bunday olib borilishi lozim:



Ikki hissali va uch hissali ($\frac{2}{4}$, $\frac{3}{4}$, $\frac{3}{8}$ va xokazo) taktlarda bitta kuchli xissa bo'lib, ular oddiy taktlar deb ataladi, ikki, uch va undan ortiq oddiy taktlarning birlashishidan xosil bo'lgan, ko'p kuchli xissalari bo'lgan taktlar murakkab taktlar deb ataladi: $\frac{4}{4}$, $\frac{6}{4}$, $\frac{6}{8}$ va xokazo.

Musiqa asarlarini taktlarga bo'luvchi kuchli va kuchsiz xissalarning uzluksiz ketma-ket almashinib turishiturishi esa ritm deb ataladi.


Ba'zan musiqa asari taktning kuchli xissasi bilan boshlanmaydi. Bunday holda birinchi takt to'liq bo'lmaydi va ko'chma takt deb ataladi.

Sinkopa


Taktidagi kuchliroq hissaning kuchsiz hissasiga ko'chishi sinkopa deyiladi. Sinkopa quyidagi

hollarda paydo bo'ladi:

Taktning kuchsiz hissasida paydo bo'lgan tovush undan keyin keluvchi kuchli hissada ham davom etganda mana bunda ijro etiladi:




Kuchsiz hissada paydo bo'lgan tovush o'zidan ilgargi kuchli hissaga tegishli tovushga nisbatan ancha katta cho'zimga ega bo'lsa:



Kuchli xissadagi pauzadan keyin:



Aksentni taktning kuchli hissasidan kuchsiz hissasiga ko'chirilganda sinkopa payda bo'ladi:



Dutor chalishning umumiy qoidalari: dutor o'tirib chalinadi. O'tirganda stulning bir chekkasiga o'tirib, gavnani erkin va to'g'ri tutish kerak. O'ng oyoqni chap oyoq ustiga qo'yish lozim. Dutor kosasi o'ng oyoq ustiga qo'yilib, o'ng qo'l tirsagi bilan biroz siqib turiladi dutor-tenor.

Chap qo'l tirsagi bukilgan bo'lib, tanaga yopishmasdan turishi kerak; dutor dastasining yuqori qismi chap qo'l bilan ushlab turilishi lozim. Dutor dastasi

ko'rsatkich barmoqning uchunchi bo'g'inidan bir oz pastda va bosh barmoq asosida turishi kerak. Chap qo'l kafti dutor dastasiga tegmasligi kerak. Chap qo'lning bosh barmog'idan boshqa hamma barmoqlari doira shaklida bo'lib ular dastaga, bo'g'in yaqiniga qo'yiladi. Dutor jarangining sofligi barmoqlarni pardalarga to'g'ri qo'yish va torni qanday kuch bilan bosishga bog'liqdir. Chap qo'l barmoqlarining tartib raqamlari:

1 – ko'rsatkich barmoq

2 – o'rta barmoq

3 – yon barmoq

4 – jimjiloq

Bosh barmoq “b” harfi bilan belgilanadi. Dutor chalishda bu barmoq faqat ikkinchi torni bosishda ishlatiladi.

O'ng qo'l bilagining o'rtasida dutor kosasining chekkasiga qo'yiladi. Qo'l panjasini torlar ustida bukilgan holda erkin ushlab, torlarga qalqon ustida zarb tashlash kerak. Barmoqlar bir joyga yig'ilib, kaft ichiga yarim bukilgan holda erkin turishi kerak.


Tovush chiqarish.

Dutor ovoz asosan o'ng qo'l panjasi bilan torlarni pastga va urish bilan hosil qilinadi. Barmoqlar erkin va bir maromda harakatlanishi kerak. Pastga ko'rsatkich barmoq bilan va yuqoriga bosh barmoq bilan zarb beriladi, bu ikki barmoq bir-biri bilan biroz yopishgan bo'lib, yuqoriga qarab urganda bosh barmoq ko'rsatkich barmoqdan biroz chap tomonga qochadi. Bunday chalish usuli yakka zarb deb ataladi va quyidagi belgilar bilan ifodalanadi:

K – panja va o'ng qo'lining ko'rsatkich barmog'I bilan pastga qarab chiqish.

B – panja va o'ng qo'lning bosh barmog'I bilan yuqori qarab chalish.

Notalar dutorga joylashuvini urganib olib, turli cho'zimga ega bo'lgan notalar, takt o'lchovlari va sanoq bilan tanishib chiqqach, birinchi mashqni bajarishga o'tish mumkin. Birinchi mashq ikki notadan – yuqorigi LYA va pastki MI dan iborat. LYA notasi dutorda birinchi ochiq torda, MI notasi ikkinchi ochiq torda olinadi. Notalarning bir-biri ustiga yozilganligi bu ikki notani bir vaqtda olish kerakligini ko'rsatadi. Ularning cho'zimi nimchorak bilan yozilganligi uchun quyidagicha sanash lozim: “ bir “ deganda bir nimchorak K – zarbida pastga, “ i “ deganda ikkinchi nimchorak B – zarbida yuqoriga urish kerak.



Bundan keyin, agar mashq yoki pyesa oldida sozlash ko'rsatilmagan bo'lsa, ularni bosh pardada chalish kerak. Birinchi mashq singari, ikkinchi mashqni ham ikki pardada chalish lozim. Pastki MI nota – ikkinchi ochiq tor – o'zgarishsiz qoladi. Birinchi LYA torida SI va DO tovushlari. SI tovushi birinchi torning ikkinchi pardasida, DO tovushi esa uchunchi pardada olinadi. SI notasini birinchi barmoq bilan, DO notasini ikkinchi barmoq bilan olinadi.

2.1.Cholg'uda ijro etishning uslubi va vazifalari.

(pastanovka, shtrixlar,barmoqlarning dastada joylashuvi)

Cholg'uda ijro etishni o'rgatish jarayoni o'quvchilar tomonidan ijro asoslarini ongli ravishda puxta egallash,ijro uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni hosil qilish va ularni amalda qo'llay olish hamda mustaqil ijodiy fikrlash va kuzatish qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, estetik didni shakllantirishga qaratilgan. Ijro etishni o'rgatish jarayonining quyidagi o'zaro bog'liq bo'igan qismlari mavjud:

- a) Ta'limning mazmuni, ya'ni ijro etishni o'rgatish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar;
- b) Ta'lim berish (o'rgatish), o'qituvchining o'quvchilarda bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini uyg'otish, ijro etishni o'rgatish bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni bayon etish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, o'zlashtirilayotgan bilim va ko'nikmalarni nazorat qilib borish;
- v) o'rganish - o'quvchilarning bilim olishlari bilan bog'liq bo'igan o'quv faoliyatlari, bunga aqliy va jismoniy harakatlar kiradi;
- g) o'quv vositalari - bunga darsliklar, qo'llanmalar, cholg'u asbobi, notalar ko'rsatmalar va hokazolar kiradi.

Endi cholg'uda ijro etishni o'rgatishning quyidagi vazifalarini ko'rishimiz mumkin:

- 1) dutorda ijro etishni o'rgatishning asosiy maqsadini aniqlash va asoslash;
- 2) o'rgatish mazmuni va tarkibiy qismlarini aniqlash va ularni muntazam ravishda takomillashtirish;
- 3) o'rgatish jarayonida ta'lim-tarbiya va o'quvchi shaxsini rivojlantirish.

Ijro etishni o'rgatishning vazifalarini qisqacha shunday tushuntirish mumkin: nima uchun va qanday o'rganish kerak? O'rgatish tajribasi asosan nazariyaga suyangan holda ishlab chiqilishi mumkinligi sababli o'rgatishning asosiy vazifasi cholg'uchilik tajribasiga tayangan holda ijro etish nazariyasini takomillashtirish,

ta'lim jarayonining o'ziga xos muhim qonuniyatlarini hamda bevosita ijro etishni o'rganishdir.

Ijro etishni o'rgatish jarayonida o'quvchilarning ma'ium bilimlarga ega bo'lishlari qay darajada dars berish bilan bog'liq ekanligini aniq ko'rsatib berish qiyin. Lekin bunday bog'liqlik mavjud ekan, o'rgatish

uslubiyotining maqsadi shu masalani oydinlashtirish, idrok etish va ilmiy jihatdan ko'rsatib berishdir. Ta'lim va tarbiya umuman juda murakkab jarayon bo'lib, uning yo'nalishiga ko'plab omillar ta'siretadi. Ta'lim berish bilan o'rganish hammavaqt ham bir xii natija beravermaydi.

O'rgatish uslubiyotining dolzarb masalasi - o'rgatish ishining tuzilishi va mazmunini aniqlab, ularni muntazam ravishda takomillashtirib borishdan iborat. Ijro etishni o'rgatish jarayonida o'quvchilarning aqliy va ijodiy qobiliyati, irodasi hamda uning kamoloti uchun zarur bo'lgan boshqa sifatlar ham rivojlanib boradi. O'quvchida bilim va ko'nikmalarning mujassamlanishi asta-sekinlik bilan amalga oshadi. Shu sababdan ijro etishni o'rgatishning faqat qisqa vaqt ichidagi natijasi bilan tanishish yetarli bo'lmay, balki o'rgatish va o'rganishning barcha bosqichlarini kuzatish kerak.

Dutor o'tirib chalinadi. Bunda stulning bir chekkasi, ya'ni uchdan biriga, asbobni tayanch nuqtalar yordamida ushlab o'tiriladi.

a – o'ng oyoqning yuqori qismi;

b – o'ng biqini;

v – o'ng qo'lning tirsagi bo'lib, kichik gavdali o'quvchilarning qo'li yetmasa, stulning bir burchagiga o'tirilib, suyanchiqli burchagiga (a – v tayanch nuqta) suyanib qo'yiladi, b (3 – tayanch) nuqta o'ng qo'l tirsagi bilan ushlanadi.

O'quvchi dasrni dutor asbobining tarixidan boshlab, o'quvchi dutordagi har bir harakatni o'z o'rnida ishlatishi, o'tirish holati, o'ng va chap qo'l harakati, uni chalishga o'tganida ularning aniq vazifalari, chap qo'l barmoqlarni pardalar ustida to'g'ri ushlab lozimligini takidlab o'tish zarur.

Dutor primada gavnani tik tutgan holda stulning yarmiga o'tiriladi. Cholg'uning kosasi kichik o'lchamdiligini hisobga olib, o'ng oyoq chap oyoq ustiga (chatishtirilgan holda) qo'yiladi. Prima kosasi o'ng oyoqqa qo'yilib, o'ng qo'l bilagi bilan unga tayani, ushlanadi. Chap qo'l yarim yig'ilgan bo'lib, ko'rsatkich va bosh barmoq bilan dastada tutiladi. Bu holatda kaft dataga tegishi mumkin emas. Bosh barmoq ko'rsatkich barmoq qarshisida joylashgan bo'lib, qolgan barcha barmoqlar dastada bemaolol harakatlanishiga yordam beradi. O'ng qo'l barmoqlari ko'rsatkich barmoqlari yig'ilib, soz bo'g'izida panja pastga va yuqoriga ikkila torga tegib harakatlanadi. Xuddi shu rasmdagiga o'xshash.





Dutor sekunda va dutor alt o'lchamlaridan kelib chiqib, ikkala oyoq yerga qo'yilib, dutor kosasi tizzaga olinadi. Dutor dastasi taxminan 45 gradus burchak ostida chap tomonga (dutor uchi o'tirganda boshdan baland bo'lmasligi kerak) egiladi. O'ng qo'l

bilagi o'ng oyoq turgan kosasiga tayanib, o'ng qo'l panjasi bilan tovush hosil qiladi. Chap qo'l barmoqlari yarim yig'ilgan bo'lib, xuddi dutor pirimadagi kabi harakat qiladi.





Dutor cholg'usida usullarning (shtrixlarning) zarb yo'nalishlari belgilari:

П - yuqoridan pastga zarb urish;

V - yuqoridan pastga zrab urish;

П V - pastdan yuqoriga zarb urish;

Dutor cholg'usida usullarning harfiy belgilari;

К – ko'rsatkich barmoq bilan zarb urish;

БЗ – bilak zarb- bilak bilan zarb urish;

Б – bosh barmoq bilan zrab uriah;

Pizz – pitsikato (chertma zarb)

Tr – tremolo (rez) ko'rsatkich barmoq bilan uzluksiz chertish бармоқ билан узлуксиз

Ж - jimjiloq bilan zarb urish;

Asarlarni murakkab zarblar orqali chalinishi quyidagicha:

VVII ПVV

П Б К. К Б Б К.

Uslubiyqismorqaliteskarizarblarko'rsatilishi

П–pastka, Б–boshbarmoqyuqoriga, К–ko'rsatkichbarmoqyuqoriga

В К В К

П V V, П V V.

Uslubiy qism orqali terma zarblar belgilanishi:

К - ko'rsatkich pastga; Б - bosh barmoq pastga; Б –bosh barmoq yuqoriga;

К - ko'rsatkich barmoq yuqoriga,;

К Б Б К К Б Б К


П П V V П П V V.

Uslubiy qismning bu ko'rinishi pirrang, ya'ni rez usulida chalinadi.


Mysiqqa asbobida tovush chiqarish usuli shtrix deyiladi.

Chalish vaqtida qanday shtrix tanlab olish pyesaga turlicha xarakter va joziba beradi.


Oddiy zarblar:



Sakkiztalik notalar ijro etilganda, oldingi sakkiztalik pastga, keyingisi yuqoriga chalinadi.




O'n oltitalik tovushlar ijro etilganda oldingi on oltitalik pastga, keyingisi yuqoriga chalinadi.




Dutor zarblarining murakkab turlari.

Teskari zarb.




Terma zarb.

O'ng qo'l ko'rsatkich va bosh barmog'i bila torlarga pastga urib zarb berish, so'ng bosh va ko'rsatkich barmoqlarni yuqoriga yo'naltirilib, ketma-ket zarb berish natijasida hosil bo'ladi.




Teskari zarb bilan terma zarb bir biriga qo'shilib hosil bo'lgan zarb




Chimdim chalish (pitsikato).

Bosh barmoq bilan chimdimlab chalish.




Ko'rsatkich barmoq bilan chimdimlab chalish.




Bosh barmoq

Pastga va nomsiz, o'rta, ko'rsatkich barmoqlari chimdimlab chalish.



Chimdimlab chalishning yana bir turi – jimjiloq, nomsiz, o'rta, ko'rsatkich barmoqlarni yuqoriga chimdimlab chalish.



2.2. AN'ANAVIY DUTOR IJROCHILIKUSLUBLARI.

Xalqimizning madaniy hayotida sozandalikka, jumladan, dutor chalishga o'rgatish va o'rganish qadim-qadimdan rasm bo'lgan an'anaviy qonun-qoidalar, ya'ni "ustoz-shogird" tizimi asosida amalga oshirilgan. An'anaviy madaniyatning muayyan xususiyatlari, san'at shakllari va janrlari an'anaviy o'rgatish-o'rganish jarayonlarida ham o'z aksini topgan. Dutor o'zining uzoq tarixi davomida shakily o'zgarishlarga uchragan. Bu o'zgarishlar esa dutorni o'rgatish-o'rganish jarayoniga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan. Bu holatlar an'analarni, shuningdek, o'rgatish-o'rganishda keyigi davrlarda paydo bo'lgan usul, qoidalar va shakllarni tadqiq qilish vazifasini yanada jadallashtiradi.

Dutor chalishga o'rgatish jarayoni ikki bosqichda amalga oshiriladi:

1. Mustaqil kuzatgan holda ko'rish- eshtish orqali idrok qilish.
2. Ko'rish-eshtish yordamida maxsus o'rganish.

Dutor chalishning malakalarini mustaqil egallash uchun shogirdan alohida qobiliyat, nozik musiqiy xotira, o'tkir eshtish va kuzatuvchanlik salohiyati talab qilinadi.

Ko'pgina ustozlar shogirdlari bilan dastlabki uchlashuvlarda durorning cholg'u sozi sifatida ijrochilik imkoniyatlari, cholg'ular orasidagi o'rni, ahamiyati, o'zining ustozlari haqida ma'lumotlar bergan.

Intizom – an'anaviy xalq pedagogikasining o'zgarmas, qat'iy qonuni bo'lib, unga rioya qilmaslik jiddiy nuqson sanaladi.

Dutor chalishga o'rgatganda o'zbeklarning barcha an'anaviy ijrochlik maktablarida ijrochilik mahoratini mukammal egallab olish birinchi darajali vazifa hisoblangan va hisoblanadi.

Eski paytda ham, hozirgi kunda ham dutorda kuy ijro etishda to'g'ri o'tirish, ya'ni gavda holatining qulay vaziyatda bo'lishiga alohida e'tibor beriladi. An'anaviy dutor ijrochiligida o'tirish, ya'ni gavda holatining uch xil namunasi bor. Bular: "chordona qurib " o'tirish, "tizzalama" o'tirish, uchunchi xil o'tirish

holati kamdan-kam uchrab faqat ayollar orasida qo'llaniladi., ehtimol kam qo'llanilgani uchun maxsus nomlanmagan.

Ustoz chalish mashqlari chog'ida qo'l va oyoq paylari va bo'g'Imlarini tarang qilmasdan, panja va barmoqlarning erkin harakatlanishi zarurligini amalda ko'rsatadi va ko'nikma hosil qiladi.

Chalishga o'rgatish jarayonida barcha maktablar uslublarida chap qo'lning pardalar ustidagi harakatlanishiga alohida e'tibor berish kerak. Dastlabki mashg'ulotlarda hamma shogirdlar ham dutorni sozlashni tezda urganib ololmaydi. Shu boisdan buni ustozning o'zi saboqlar boshlanishidan oldin bajarib qo'yadi. Dutorni sozlashda shogird oldin xarrakni joyiga qo'yishni mashq qiladi. Uning o'z o'rniga qo'yilgan-qo'yilmaganini bilish uchun o'ng qo'l boshmaldog'I bilan dutor chertilib, chop qo'l yordamida ayrim pardalar bosib ko'riladi.

Mirzajon Tillayev, Saidxo'ja Xoldorxo'jayev, Boqi Ashurov singari dutorchilarning fikriga qaraganda, shogird dutorni mustaqil sozlashni bir nech o'nlab darslardan keyin mukammal o'zlashtirishi mumkin ekan.

Muhim mezonlardan yana biri har bir ustoz torlarda tovushlar hosil qilishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Ta'lim berish davrida ochiq torlarni o'ng qo'l barmoqlari bilan ikki torga ayni paytda ustidan va ostidan beriladigan oddiy zarblar o'rgatiladi. Eng oson va keng qo'llaniladiga usul- ko'rsatkich va bosh barmoq yordamida chertish, ya'ni "yakka zarb" mashqidir. Ochiq torlarda bu usul obdon mashq qilingandan so'ng, anch ko'p qo'llaniladigan "bilak zarb" mashqiga, ya'ni jimjiloq, so'fi barmoq, o'rta va ko'rsatkich barmoqlar bilan bir varakayiga chertishga o'tiladi.

Bu usullar obdon mashq qilinib pishitilgandan keyingina chap qo'lni ishlatish, ya'ni barmoqlarning pardalar uzra joylashi tartibi o'rgatiladi. Bunda dutor asosan kvartaga sozlangan bo'lishinmaqsadga muvofiq bo'lib, o'rganish jarayonida kichik diapazonli, murakkab bo'lgan kuylarni ijro etish mumkin.

O'rganishning dastlabki davridayoq o'rganish lozim bo'lgan uchunchi usul – "bidratma" bo'lib u Xorazm dutor chalish an'analarida keng qo'llaniladi. Bu usulni o'rganish qanchlik qiyin bo'lmasin, cholg'u sozini o'zlashtirishning dastlabki bosqichlaridayoq mashq qilinadi. Ayrim xollarda "bidratma"ni egallashda n oldin "terma zarb"ni o'zlashtirish lozim bo'ladi.

Chap qo'l barmoqlari yordamida tovushlarni bir biriga moslab o'zlashtirish an'anaviy "oddiy zarb" usuli bilan birga o'zlashtiriladi

Musiqiy tovushlar va bezaklar o'ng qo'lining to'rtta barmog'I bilan baravariga ikki torni chertish va chap qo'l barmoqlari bilan bosish hisobiga hamda o'sha holat yuqoriga qarab bosh barmoq bilanchertilgan taqdirda hosil bo'ladi.

Bir barmoq bilan ikki torni bosib turish zarur bo'lganida torlar orasidagi masofa mumkin qadar qisqa bo'lishi kerak. Buning uchun "xarak"dagi qo'shimcha tilimdan foydalaniladi.

Ayollarning dutor chalishni o'rganish malakasi dastavval kuylarni bevosita eshitishi orqali qabul qilish, juda kam hollardagina maxsus shogirdlikka tushish orqali ro'yobga chiqqan.

Shogird tushgan xotin-qizlarga o'z onalari, buvilari yoki boshqa yaqin qarindoshlari, kamdan-kam hollarda eng yaqin erkak qarindoshlar ustozlik qilgan.

Dutor xilma-xil usullari, ularning uyg'un birikmasini anglab yetish, ohanglarini esta tutish jarayoni, sozandaning mustaqil ijodiy faoliyati uchun zarur ko'pgina kasbiy va hayotiy malakalarini egallash shu tarzda asta – sekin amalga oshiriladi.

Dutorchilar orasida "dutor chalish uchun dutorchida qalib bo'lishi kerak" degan moziydan qolgan naqil bor. Shogirdlik ta'limini puta egallab, mustaqil ijrochilik faoliyatini boshlagan har bir dutorchi bu naqilni esda tutishi lozim.

Musiqqa ijrochilik amaliyotida dutor cholg'u ijrosini me'yoriga yetkazib, ustozlik darajasida faoliyat olib brogan bir talay san'atkorlar o'tgan. Zoxidjon

Obidov, Faxriddin Sodiqov, Maxmud Yunusov, Orif Qosimov, G'ulom Qo'chqorov kabi ustoz san'atkorlar shular jumlasiga kiradi.

XX asrda dutor ijrochiligining rivoji aynan mana shu ustozlarning samarali ijodiy faoliyatlari bilan bog'liq bo'lgan. Lekin har bir san'atkorning dutor ijrochiligida o'ziga xos chertish yoki chalish usuli bo'lgan. Aynan shu jihatdan mohir ekanliklariga asos bo'lgan.

Zoxidjon Obidov ijrochi bo'lish bilan birga ijod bilan ham shug'illangan. Sozanda shaxsiy ijro uslubining negizi ham uning o'ng qo'li harakati bilan bog'liq. Qo'l barmoqlari va beriladigan zarblarning turli ko'rinish va shakllari hamda urg'ularni rang – barang ishlatishda, teskari zarblari o'rniga qo'yib aks ettirish uslubining zaminidir.

Mahmud Yunusov dutor ijrochiligida o'ziga xos uslub orqali tanilgan. Bu uslub asosida o'ng qo'l harakatining to'g'riligi, bir xillik xususiyat kasb etishi, elastik harakatlardan va mayda zarblardan mustasno ekanligi turadi.

Dutor ijrochiligining an'anaviy yo'nalishida o'ziga xos jozibali uslub in'om etgan ikki zabardast ustozlarni etirof etish joiz. Bular xalq ardoqlagan san'atkorlar Faxriddin Sodiqov va Turg'un Alimatovlardir.

XX asrning 30-yillaridan o'zbek musiqa san'atida, ayniqsa ijod va ijroda yangi-yangi qarashlar yuzaga kela boshladi.

Turg'un Alimatov uslubi keng ommalshgan va o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Uning dutor ijrochilik uslubi, mukammal tarzda o'ng va chap qo'llar harakatlari bir – biriga mutanosib holda ifoda etilishini ko'rishimiz mumkun.

Dutor ijrochiligida Faxriddin Sodiqov uslubi benazirdir va har bir qo'l o'zining betakror hamda o'ziga xos xarakterlari bilan ajralib turadi.

Faxriddin Sodiqov ijro uslubida ijro etishning bir qator o'ziga xos jihatlari mavjudva eng avvalo ularni o'zlashtirish muhimahamiyat kasb etadi.

Ustozning ijro uslublaridan kelib chiqib, ushbu uslubning xarakterlovchi o'ziga xos jihatlari quyidagich izoh etish joiz:

- 1) ijro jarayonida bosilgan har bir parda naqshinkor;
- 2) o'ng qo'l harakatida ortiqcha zablardan qochish, ya'ni zarbsiz sadolantirish orqali ulardan voz kechish;
- 3) bo'shya'ni zarbsiz pardalardan sado bilan to'ldirish;
- 4) mayin ijro etishga erishish.

Faxriddin Sodiqov ijro uslubiga mansub bo'lgan qo'llanmada keltirilgan asarlarni uslub asosida to'g'ri ijro etish uchun quyidagi uslubiy tavsiyalarni havola etamiz:


1. II – pastga yo'naltirilgan zarb;
2. V- yuqoriga yo'naltirilgan zarb;
3. – umumiy miyanig'.

Miyang' – akademik ijrochilikdagi glissado ijro uslubining o'ziga xos ko'rinishlari deyish mumkin. Faxriddin Sodiqov ijro uslubida miyang' ikki ko'rinishda uchraydi. Oddiy miyang' va sadoli miyang'.


Dutor sozlanish bo'yicha o'zgaruvchan cholg'ular guruhiga kiradi. O'tmishda ijrochilik amaliyotida milliy an'analar bilan bog'liq qator "soz"lar shakllangan.

"Dutor torlarining sozlanishi, - deb yozadi cholg'ushunos olim J. Rasultoev, - unda ijro qilinadigan cholg'u kuylari, ashula qo'shiq va raqslarga jo'r bo'luvchi turlariga qarab el orasida turlicha atamalar bilan nomlanadi".

Ayniqsa maqom ijrochiligida bu sozlar katta ahamiyat kasb etadi. Ijrochilikda dutorni kvarta, kvinta, unison (qo'sh parda), oktava va sekunda oralig'idagi sozlar asosida sozlanadi.



Notalar skripka kalitida yozilganligiga nisbatan bir aktava past eshtiladi.



Kvarta sozi Farg'ona – Toshkent ijro yo'lida tanovar sozi iborasi bilan yuritaladi.

Kvinta sozi barcha sozlarga nisbatan keng tarqalgan, an'anaviy va xalq yo'lidagi oddiy musiqa namunalarini ijro etish uchun qulay bo'lgan soz hisoblanad.

Unison yoki qo'sh soz xalq orasida qo'sh soz iborasi bilan mashhur bo'lib, bu sozda maxsus ijod etgan asarlar ijro etiladi. Xalq bastakorlari soz xususiyatidan kelib chiqqan holda asarla ijod qilganlan. Qo'shtor kuyi bunga misol bo'la oladi.

Chap qo'l va o'ng qo'l harakatlari.

Dutorning o'ta nozik va ta'sirli sadolanishida o'ng qo'l zablari muhim ahamiyat kasb etadi. O'ng qo'l barmoqlarini iloji biricha dutor qopqog'iga urmasdan, faqat torlarning o'ziga tekkizibharakatlanish lozim. Ijro jarayonida o'ng qo'lning bilak qismi dutor kosasining yuqori qismidagi qopqoq bilanulangan joygqa oxista qo'yib, barmoqlarni esa dutor kosaxonasining yuqori qismidagi qopqoq bilan ulangan joyga ohista qo'yib, barmoqlarni esa dutor kosaxonasining go'g'iziga yaqin joyda harakatlantirish lozim. o'ng qo'l barmoqlari torda harakatlangan vaqtda tirnoqlar bilan emas, barmoqlarning uchi bilan chalish kerak.

Chap qo'lning dastada erkin harakat qilishi shu qo'l barmoqlarining pardaga to'g'ri bosilishiga ham bog'liqdir. Barmoqlar pardalarga yuqoridan ko'tarilgan

holda tushishi lozim. Chop qo'l bosh barmog'I dutorning qanday sozlanishiga qarab turlicha joylashadi. An'anaviy ijrochilikda jimjiloq ishlatilmaydi.

DUTOR ZARBLARI

Dutor milly chog'ular orasida o'ziga xos zarblarga boy cholg'u sanaladi.

Dutor ijrochiligida yakka zarb, tanovar zarb, teskari zarb, qo'sh zarb, bilak (terma) zarb, ufor zarb, zarbi parron, pirrang kabi zarblar qo'llaniladi.

Yakka zarb – yuqoridan pastga harakat П (panja) belgisi bilan ko'rsatiladi.

Yfori zarb

Ufori zarb doira ysulining nomidan olingan bo'lib, uning ko'p xillari bizga ma'lum. Masalan: Xorazim ijrochiligida teng 6 ta zarb – birinchi zarb aksent bilan chalainadi.

Toshkent – Farg'ona ijrochiligida esa 6 ta teng zarbning birinchi hissasi nuqta bilan ijro etiladi.



Bunda prrang deb yozib qo'yilgannotalar ustida pr xarflari (belgisi) bilan belgilangan.


Teskari zarbnotada katta T harfi bilan ifodalanadi. bu zarb o'zbek kuylarini jozibali bezasgda ishlatiladi.



Qo'sh zarb bir pardada qo'shaloq holda yoqimli tovush beradi.



Zarbi pirron – ko'p va tez – tez qo'llaniladigan uslub bo'lib, xalq kuylari va maqomlarini ijro etishda qo'llanadi.



An'anaviy ijrochilikda bezak va qochirimlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular sozandalar orasida qochirim, kashish, molish, nolish, to'lqinlatish kabi iboralar bilan ataladi.

Hozirgi kunda respublikamizda an'anaviy dutor ijrochiligi tobora ommalashib bormoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bugungi kungacha qilingan ishlarimiz, erishgan yutuqlarimizni dengizdan tomchi deb hisoblaymiz. Yosh avlod ilm fanga, madaniyat va san'atga chanqoq, xalq cholg'ularida ijrochilik san'atining dovrug'ini jahonga taratadigan ishtiyoqmand aqliy salohiyat egalari oramizda ko'p.

Dutor O'rta Osiyo xalqlari orasida juda keng tarqalgan va sevimli cholg'u hisoblanadi. Bu cholg'u asbobi bilan shug'illanayotgan maktab, kollej o'quvchilari faqat o'zbek xalq musiqasi bilangina chegaralanib qolmasdan, boshqa davlatlarning dutor va dutorga o'xshash torli asboblar uchun yaratilgan musiqa asarlari, jahon musiqachilari ijro etadigan musiqalarini o'rganishlari va ularni yuksak darajada ijro etib, musiqa ixlosmandlarini baxramand etishi lozim. Orzu – niyatlarimizni ro'yabga chiqarishda yoshlarimiz uchun shart – sharoitlar yaratish musiqa maktablari, bilim yurtlari va oliy ta'lim o'qtuvchilarining birinchi navbatdagi vazifalari hisoblanadi. Musiqa ijrochisinitarbiyalashda dastlab musiqa, so'ngra texnik imkoniyat, undan keyin dinamika va xokazolar deyish xato bo'ladi. Chunki asarning barcha jihatlari bir vaqtda, o'zaro bog'liq holda olib boriladi. O'quvchining musiqa sohasiga qo'ygan birinchi qadamidan boshlab, butun ijodiy faoliyati davomida bu jarayon davomi etadi.

Musiqada millat, til yo'q. U qaysi xalq tomonidan yaratilgan bo'lsa ham, hammaga tushunarli bo'ladi. Uni hammaga tushunarli qilib ijro etish san'atini o'rganish esa biz kadrlarning vazifamiz hisoblanadi.

XX asr o'zbek musiqa tarixida ulkan nom qoldirgan, xalqimiz sevgan sozanda san'atkorlarning nomlarini eslaganimizda ruxlanib yanada ijod qilishga, yangiliklar yaratishga intilamiz.

Hozirgi kunda ham elimiz e'tiboriga tushgan, san'at uchun hayotini bag'ishlagan, bor mehrini bergan, ustozlarimiz ham faoliyat yuritib kelmoqda. Masalan: Anvar Lutfullayev, Ro'zibiy Xodjayeva, Murod Toshmuhammedov, Baxtiyor Azimov, Ulug'bek Yunusov, Durdona Haydaraliyeva kabilar.

Xulasa qilib aytganda, bugungi kunda O'zbekistonda dutor san'ati o'z rivojlanishining ma'lum bosqichini o'tayabdi.

ILOVALAR





28
апрел
2017 йил
15:00

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
МАДАНИЯТ ВАЗИРЛИГИ
ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТ
КОНСЕРВАТОРИЯСИ
ОРГАН ЗАЛИ

28
апрел
2017 йил
15:00

ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТ
КОНСЕРВАТОРИЯСИНИНГ
80 ЙИЛЛИГИГА БАҒИШЛАНАДИ

йилига бағишланади

“ЎРИК ГУЛЛАГАНДА”

ДЕБ НОМЛАНГАН

ХИСОБОТ КОНЦЕРТИ

КОНЦЕРТ ИШТИРОКЧИЛАРИ:

Ўзбекистон давлат консерваторияси

“Халқ чолгуларида ижрочилик”

ишфураси йиштирилган



Foydalanilgan adabiyotlar.

1. M. A. Asilov, F. N. Vasilov “Dutor darsligi” Toshkent – 1977
2. O. Qosimov “Dutor taronalari”. Toshkent - 1978
3. R. Xojiyeva “Dutor taronalari”
4. B. Raximov “Dutorchilar ansambli” Toshkent – 2002.
5. G'. Qo'chqorov “Dutor sadolari” Toshkent – 1978.
6. J. K. Rasultoyev “O'zbek dutor ijrochiligi” Toshkent – 1997.
7. G. Muhammedova “Dutor darsligi” Toshkent – 2005.
8. A. Ilyosov “Dutor o'rganish kitobi” Toshkent – 1966.
9. “O'zbek an'anaviy musiqa ijrochiligi” xrestomatiyasi.

Tuzuvchi A. Hamidov Toshkent – 1978

10. Toshpo'latova “An'anaviy dutor ijrochiligi”. Toshkent – 2004.